

CHO'LLANISHGA QARSHI KURASHISHDA XITOIY VA ISROIIL TAJRIBASI: HUQUQIY ASOSLARNING SHAKLLANISH JARAYONI

Farangiza Nuriddinova

Toshkent davlat yuridik universiteti

Biznes huquqi va sud himoyasi fakulteti 2-kurs talabasi

farangizanuriddinova195@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda cho'llanishga qarshi kurashishda Isroil va Xitoy tajribasi haqida o'rganilgan shuningdek, yuqoridagi davlatlarning cho'llanishga qarshi kurashish sohasida amalga oshirayotgan harakatlari uchun qonunchilik hujjatlarini shakllantirish jarayoni o'rganilgan va qiyosiy tahlili orqali ularning farqli jihatlari yoritib berilgan. Bu borada sohadagi tarixiy voqeliklar atroflicha o'rganilib tahlil qilingan. Statistika ma'lumotlari va xalqaro qonunchilik hujjatlari asosida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: cho'llanish, huquqiy asos, cho'l hududlar, qishloq xo'jaligi, iqlim o'zgarishi, global isish, qurg'oqchilik.

Hozirgi kunga kelib ekotizimning izdan chiqishi natijasida yer shari soniyalar ichida cho'lga aylanib boroqda. Cho'llanish so'zinini bir necha xil variantlar bilan ifodalash mumkin, qurg'oqchil ya'ni yog'ingarchilik kam yerlar asosan cho'l hududlar hisoblanadi. Cho'llanish - tabiiy yoki inson omili natijasida lalmikor yerlarning biologik hosildorligining pasayish jarayoni. Iqlim o'zgarishi, axoli soning oshishi, o'rmonlarning keskin qisqarishi, siyosiy beqarorlik, noto'g'ri yo'lga qo'yilgan sug'orish amaliyotlari va shu kabi boshqa jarayonlar hosildorlikning yomonlashuviga va cho'llanishning kengayishiga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi kunga kelib yer sharida quruqlikning 46.2 foizini qurg'oqchil yerlar tashkil qiladi va yer yuzida 3 milliardga yaqin axoli qurg'oqchil va cho'l hududlarda istiqomat qiladi. Shulardan 2 milliardga yaqini Janbiy va Sharqiy Osiyo hududiga to'g'ri keladi. Bilamizki, bu davlatlar iqtisodiyoti dehqonchilikka asoslangan. Cho'l hududlarining kengyaishi esa o'z navbatida bu hududlar iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qiladi. Cho'llanish havfi yildan yilga kengayib borishi aniq bo'lib turibdi. Xo'sh o'zi cho'llanishning sabablari nima?

Murakkab ekologik muammo bo'lgan cho'llanish unumdor yerlarni yomonlashtiradigan, uni qurg'oqchil va unumsiz holga keltiradigan turli omillar ta'sirida yuzaga keladi. Cho'llanish faqatgina bitta omil natijasida yuzaga kelmaydi. Cho'llanishga sabab bo'ladigan bir qancha antropogen omillarni sanab o'tishimiz mumkin:

Yerdan noto'g'ri foydalanish: Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tlovlardan zaruratdan oshiqcha foydalanish, o'rmonlarni kesish va noto'g'ri qishloq xo'jaligi texnikasini qo'llash cho'llanishga sezilarli hissa qo'shgan. Bu amaliyotlar asrlar davomida mavjud bo'lib, odamlar sonining o'sishi natijasida yanada tezlashgan.

Qishloq xo'jaligi bosimining kuchayishi (XX asr): XX asrda qishloq xo'jaligining intensivlashuvi, ko'pincha tuproqni saqlash bo'yicha tegishli choralar ko'rilmagani, haddan tashqari ko'p ekin ekishga olib keldi. Bu tendensiya tuproq sifati va unumdorligini sezilarli darajada yomonlashtirib, dunyoning turli mintaqalarida cho'llanishni tezlashtirdi.

O'rmonlarni kesish (XX asr): Qishloq xo'jaligini kengaytirish, urbanizatsiyaning rivojlanishi va boshqa masalalar uchun o'rmonlarning kesilishi cho'llanishga sezilarli hissa qo'shdi. Katta miqyosdagi o'rmonlarni qisqarishi, ayniqsa tropik mintaqalarda, tuproq eroziyasiga, biologik xilma-xillikning yo'qolishiga va oxir-oqibat cho'llanishga olib keldi.

Iqlim o'zgarishi (XX asr oxiridan hozirgi kungacha): XX asr oxiridan boshlab iqlimning keskin o'zgarishi cho'llanishni kuchaytirdi. Haroratning ko'tarilishi, yog'ingarchiliklar, uzoq davom etgan qurg'oqchilik va ekstremal ob-havo hodisalari zaif hududlarda tuproqning degradatsiyasi va qurib ketishini kuchaytirdi.

Aholining o'sishi va urbanizatsiya (XX va XXI asrlar davomida): Aholining tez o'sishi va shaharlarning kengayishi yer resurslariga bosimni oshirdi. Rejasiz urbanizatsiya esa yerlarning degradatsiyasiga olib keldi.

Sanoat faoliyati (XX asrdan keyin): Nazoratsiz sanoat faoliyati, jumladan, tog'-kon sanoati va chiqindilarni noto'g'ri utilizatsiya qilish tuproq va suv manbalarini ifloslantirib, yer sifatini yanada yomonlashtirib, ayrim hududlarda cho'llanishni tezlashtirdi.

Yuqoridagi antropogen omillardan tashqari bir qator tabiiy omillar ham yer yuzining cho'llanishiga sabab bo'lmoqda.

Endi esa insoniyat oldida turgan asosiy muammo cho'llanishga qarshi usullar bilan kurashish kerakligi. Bugungi kunga kelib cho'llanishga qarshi kurashdagi eng samaralli usullar Xitoy va Isroil davlatlari tajribalaridan foydalanishdir. Nega aynan bu ikki davlat? Chunki bu ikki davlat tomonidan amalga oshirilgan tajribalar bugungi kunda o'zini oqlagan.

Birinchi navbatda Xitoy tajribasi haqida gaplshsak, Xitoyning Buyuk Yashil Devori - 1978 yilda Xitoy hukumati Shimoliy Xitoyning cho'l chegarasi bo'ylab 2800 milya (4506 kilometr) chegara bo'ylab millionlab daraxtlarni ekish va shu bilan birga butun dunyodagi o'rmon qoplamini ko'paytirishni maqsad qilgan "Uch shimoliy boshpana" loyihasini amalga oshirdi. Buyuk Yashil devor 8 milliard dollarga tushishi reja qilingan. Uning ijida 1,2 milliard dollarlik xaritalash va ma'lumotlar bazalarini nazorat qilish tizimi mavjud bo'ladi.

Ushbu loyihadan maqsad daraxtlar cho'llanishga qarshi kurashish va atmosferadagi karbonat angidridni yutib yuborishi uchun to'siq (nomidan ko'rinib turibdiki, "yashil devor")

vazifasini bajaradi. Bu o'z navbatida o'rmonlarning ko'payishiga olib keladi. O'rmonlarning kengayishi esa tuproq eroziyasi va cho'llanishga qarshi kurashda yordam beradi.

Ulug'vor loyiha 2050 yilda yakunlanishi kerak, bu vaqtga qadar taxminan 88 million gektar o'rmon barpo etiladi - bu yil loyiha muddatidan oldin amalga oshirilayotgani ma'lum bo'ldi, Bu yilgi maqsad o'rmonlarni 13.5-15%ga ko'paytirish edi. Ammo hozirgi vaqtda rejadan 5%ga ko'p hudud o'rmonga aylantirildi. Bunga har yili 12-mart kuni o'tkaziladigan tadbir yordam bermoqda, chunki bu sanada mamlakatda "Daraxt ekish kuni" nishonlanadi, 11 yoshdan oshganlarga yiliga uchta ko'chat ekish bo'yicha qonuniy burchlarini bajarish kerakligini eslatiladi.²²

Cho'llanishga qarshi Xitoy qo'llagan ikkinchi usul bu Shimoli-g'arbiy Xitoy hududi va Shinjon Uyg'ur avtonom Respublikasida "cho'l qo'riqchisi" deya tanilgan Furot qutbi nomli o'simlik ekiladi. Shimoliy Xitoyning Ichki Mo'g'uliston avtonom viloyati cho'llarida faqat eng kuchli o'simliklar omon qoladi va Furot qutbi ular orasida yagona daraxt turi hisoblanadi.

Taxminan 65 million yil oldin dinozavrlar yo'q bo'lib ketganidan so'ng, qadimgi O'rta er dengizi bo'yida yangi o'simlik turi paydo bo'ldi. Bu Furot teragi yoki *Populus Euphratica* edi. Daraxtning balandligi 20 metrdan oshadi va barglari shaklni o'zgartirishga qodir. Nihol paytida barglar bug'lanishni kamaytirish uchun tol barglariga o'xshash shaklga kiradi. Uning bo'yi o'sib, tanasi o'sishda davom etishi uchun ko'proq energiya kerak bo'lganda, barglari kattalashib, yumaloq shaklga kiradi.

Terak suvni yaxshi ko'radi, lekin Gobi cho'lidagi qurg'oqchilikka ham chidamli. Yer osti suvlari to'rt metrga yaqin bo'lsa, teraklar bemaol o'sishda davom eta oladi. Cho'lda terak o'rmoni bor joyda suv va tuproq yaxshi saqlanadi.

Bundan tashqari, daraxtlar shamolni to'sadi, qumni yaxshilaydi va tuproq sifatini yaxshilashga yordam beradi. Yuqoridagi hududlarda Xitoyning uchinchi yirik cho'li Badain Jaran joylashgan. Ushbu 260 kvadrat kilometr terak o'rmoni bo'lmaganda, qariyb 50 ming kvadrat kilometrlik Badain Jaran cho'li shimolga yoyilib, odamlarning yashash maydonini egallab olgan bo'lar edi.²³

Yuqoridagi tajribalarni tizimli amalga oshirish uchun Xitoy davlati mukammal qonun hujjatlarini ham ishlab chiqqan. Bu qonun hujjatlarisiz kutilganidek natijaga erishish imkonsiz bo'lar edi. Xitoy Xalq Respublikasining "Cho'llanishga qarshi kurash to'g'risidagi qonuni" (2001) yuqoridagi fikrimizning yaqqol misolidir. Fermerlarni chekka qishloq xo'jaligi yerlarini o'rmonlar yoki o'tloqlarga aylantirishga rag'batlantirish orqali o'rmonlar

²² <https://earth.org/desertification-in-china/>

²³ <https://news.cgtn.com/news/2020-01-21/Euphrates-poplar-Guardian-of-the-desert-NoZVJrZeg/index.html>

kengayishiga erishildi. “O‘rmon xo‘jaligi qonuni” (1984) va “Suv to‘g‘risidagi qonun” (1988) kabi bir-birini to‘ldiruvchi qonun hujjatlari Xitoyning yerni barqaror boshqarishga juda katta hissa qo‘shdi.²⁴

Endi Isroil tajribasini qo‘llash va uning qay darajada yaxshi samara berganini o‘rganishga harakat qilamiz. Simcha Blass zamonaviy tomchilatib sug‘orishning yaratuvchisi sifatida tanilgan, bu ixtiro qishloq xo‘jaligi olamini o‘zgartirdi. Simcha suvsiz o‘sayotgan daraxtni topdi va uning ildiz qismiga suv oqadigan quvurni qo‘yishni o‘ylab qoldi. Bu topilmalar uni tomchilatib sug‘orishni rivojlantirishga olib keldi. Ko‘p yillik tajribalardan so‘ng, Simcha va uning o‘g‘li Yeshayaxu 1959-yilda zamonaviy tomchilatib sug‘orishning birinchi tajriba tizimini ishlab chiqishdi va 1965-yilda birinchi tomchilatib sug‘orish kompaniyasi Netafimni yaratildi. Tomchilatib sug‘orish ekinlarni yetishtirishda qo‘llaniladigan eng samarali texnologik taraqqiyotdir. Tizim to‘g‘ri miqdorda suv va ozuqa moddalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘simlikning ildizlariga o‘z vaqtida etkazib beradi, shunda o‘simlik maksimal o‘sishi uchun kerakli narsani oladi. Har qanday ekinni tomchilatib sug‘orish orqali yetishtirish mumkin, suv miqdori faqat vaziyatga qarab o‘zgartirilishi kerak. Jarayon suv va energiyani tejaydi va hosildorlikni sezilarli darajada oshiradi.²⁵

Isroilning bu tajribasidan hozirgi kunda yurtimiz fermerlari ham unumli foydalanishmoqda. Bu esa tajribaning foydali ekanidan darak beradi. Bu kabi tajribalar yaxshi foyda berishi uchun u tegishli qonun hujjatlari ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yurtimiz va dunyoda cho‘llanishga qarshi qanday qonun hujjatlari ishlab chiqilgan?

Cho‘llanishga qarshi bir qancha hujjatlar qabul qilinganini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, BMT ning cho‘llanishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Konvensiya. Ushbu konvensiya 1994-yil 17-iyunda qabul qilingan va BMT ga a‘zo barcha davlatlar tomonidan imzolangan. O‘zbekiston ushbu konvensiyani 1994-yil 7-dekabrda imzolagan va 1995-yil Oliy Majlis tomonidan ushbu konvensiya ratifikatsiya qilingan. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasining cho‘llanishga qarshi, asosan, Orol dengizi atroflarini cho‘llanishdan qutqarishga bag‘ishlangan bir qancha ichki qonunchilik hujjatlari mavjud. Masalan, “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA CHO‘LLANISH VA QURG‘OQCHILIKKA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori mavjud bo‘lib, ushbu qarorda Konvensiyaning umumiy mazmuniga tayanib qo‘shimcha, ichki normalar ham belgilab qo‘yilgan.²⁶

²⁴ Journal of Environmental management, China against desertification

²⁵ <https://hasbarafellowships.org/drip-irrigation-israels-ingenuous-invention/>

²⁶ <https://lex.uz/docs/-4211813>

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi kunda butun dunyo cho'llanishga qarshi birgalikda kurashishi kerak. Bu kurashda g'alaba qozonmaslik kelajak avlod uchun hozirgi kundanda ag'irroq holatlarni vujudga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu kurashda g'alaba qozonish uchun esa ekologiyani tiklovchi samarali usullardan oqilona foydalanish kerak. Yuqoridagi maqolada Xitoy va Isroil davlatlari tomonidan amalga oshirilgan shunday samarali usullarni ko'rishimiz mumkin. Bu kabi usullarni yurtimiz sharoitiga moslash yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu jarayonni to'laqonli muvaffaqiyatli amalga oshirilishida esa yaxshi ishlab chiqilgan qonun hujjatlari yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://earth.org/desertification-in-china/>
2. [https://news.cgtn.com/news/2020-01-21/Euphrates-poplar-Guardian-of the-desert-NoZVjlrZeg/index.html](https://news.cgtn.com/news/2020-01-21/Euphrates-poplar-Guardian-of-the-desert-NoZVjlrZeg/index.html)
3. <https://hasbarafellowships.org/drip-irrigation-israels-ingenious-invention/>
4. [PQ-4204-сон 22.02.2019. O'zbekiston Respublikasida cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida](#)
5. Desertification and Land Desertification
6. Journal of Environmental management